



PROFILAKTIKA INSPEKTORI TOMONIDAN AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNIG TASHKILIY ASOSLARI

Narziyev Shaxzodbek Zoyirovich

IIV Akademiyasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati”
kafedrası o’qituvchisi,

Abduvaliyev Muhammad To’lqin o’g’li


IIV Akademiyasi 3-o’quv kursi kursanti
abdubaliyevmuhammad15@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18955035>

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida qo’llanilayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarning dasturiy hamda qurilmaviy ta’minoti. Axborot va raqamli texnologiyalarning qurilmalari ularning turlari va tashkil etuvchilari. Aloqa va kommunikatsiya vositalari hamda ularning imkoniyatlari. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatidagi raqamli axborot tizimlari, ularning imkoniyatlari va vazifalari. Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo’linmalari faoliyatining samaradorligini oshirishda “E-inspektor” elektron kompleks tizimi vazifasi, imkoniyatlari va undan foydalanish.

Profilaktik hisobdagi shaxslar bilan ishlash bo’yicha elektron axborot tizimi vazifasi va uning imkoniyatlari. Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini real vaqt rejimida kuzatish uchun elektron braslet va undan foydalanish. Elektron brasletlarni hamda ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun server va ushbu tizimga aloqador qurilmalar va ulardan foydalanish. Monitoring qilishning zamonaviy mobil texnologiyalari, maxsus dasturiy ta’minotlar, ularning imkoniyatlari va vazifalari. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida ma’muriy huquqbuzarliklar to’g’risidagi ishlarni ko’rib chiqish bo’yicha “E-ma’muriy ish” yagona elektron hujjat almashinuvi tizimi vazifasi, imkoniyatlari va undan foydalanish. Profilaktika xizmatida hisobotlarni unifikatsiya qilish va uni boshqa tashkilotlarning hisobot yuritish hamda idoraviy axborot tizimlari bilan o’zaro integratsiya qilishda “E-hisobot” axborot tizimi vazifasi va undan foydalanish imkoniyatlari.

Ichki ishlar organlarining “Yagona situatsion boshqaruv markazi” axborot tizimining tashkil etuvchilarining vazifalari, imkoniyatlari va ulardan foydalanish. Bugungi zamonda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi va ijtimoiy sohada odamlarga katta qulayliklar yaratadi.





Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o'sishiga zamin yaratadi: mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, va ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi, va yana bir muhim afzallik — korrupsiyaga chek qo'yadi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish eng ustuvor vazifa sifatida ham ko'rsatilgan edi. Bu borada "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini va hayot sifatining barqaror yaxshilanishini ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish va "raqamli iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish choratadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan, 2020-2021 yillarda joriy etiladigan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar ro'yxati, "Raqamli Toshkent" kompleks dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi, 2020 yilda telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish bo'yicha loyihalar ro'yxati, 2021- 2023 yillarda istiqbolli axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar ro'yxati tasdiqlandi.

Dasturning asosiy vazifasi etib shahar xizmatlarini boshqarish, ijtimoiy soha obyektlari, ishlab chiqarish, yo'l transport va kommunal infratuzilmaning integratsiyalashgan axborot muhitini yaratish va keyinchalik muvaffaqiyatli tajribani respublikaning boshqa hududlarida tatbiq etish belgilandi. Hozirgi davrda sivilizatsiya rivojlanishining bosh tendensiyalaridan biri — shaharlarda istiqomat qiluvchi aholining ko'payishi va shahar asosiy iqtisodiy drayverlarga aylanib kelishi.

Tabiiyki, shu nuqtai nazardan shaharlarda istiqomat qiluvchi aholi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratilishi muhim vazifadir. Va shu tarzda raqamli texnologiyalar katta ko'mak beradi.

Raqamli texnologiyalar shaharlarni boshqarish tizimini yangi bosqichga ko'taradi: nafaqat vaqt va mablag'larni keskin sarflaydi, shu bilan birga keng aholini jamg'arishga imkon yaratadi. So'nggi yillarda dunyoda "Raqamli shahar" konsepsiyasi ommalashmoqda — o'ta zamonaviy, yangi qiyofaga ega shahar. Agarda biz ham shaharlarimizni zamonaviy tendensiyalarga mos rivojlantirmoqchi bo'lsak, aholi va mehmonlarimiz uchun qulay shart-sharoit yaratmoqchi bo'lsak, mazkur masala biz uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Avvalombor raqamli iqtisodiyot o'zi nima ekanligini yaxshilab tushunib etishimiz lozim. Raqamli iqtisodiyot bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni






rivojlantirish hisobiga mehnat unumdorligi va mahsulotning raqobatbardoshligiga, ishlab chiqarish xarajatlarini pasayishi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi.

Qayerda "Raqamli iqtisodiyot" va "Elektron hukumat"ga o'tilgan bo'lsa, odamlarning og'iri yengil bo'layotgani, davlatning katta-katta sarfxarajatlari tejalayotgani, korrupsiyaning oldi olinayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu tajribadan kelib chiqib, poytaxtimizning o'ta zamonaviy makonga aylanish, iqtisodiy va turistik salohiyatini o'stirish maqsadida "Raqamli Toshkent" nomli yirik va ko'p tarmoqli loyihalar ishlab chiqildi.

Mazkur tizimini joriy etish, uni sinovdan o'tkazib, boshqa hududlarga esa tayyor dasturiy ta'minotlarni yetkazib berish rejalashtirilmoqda. Mazkur loyiha ko'p tarmoqli loyiha bo'lib, o'z ichiga bir qator soha va tarmoqlarini qamrab oladi. "Tibbiyot muassasalari pasporti", "O'zTrans", Turistlar hisobini yuritish bo'yicha "E-Mehmon" va boshqa axborot tizimlari aholi hamdar loyiha ko'p tarmoqli loyiha bo'lib, Masalan, elektron tibbiyot kartasi joriy etilsa, shifokorlarning qog'oz to'ldirishga ketadigan vaqti ancha qisqarib, aholi bilan ishlashi uchun ko'proq imkoniyat bo'ladi. Shu maqsadda Toshkent shahridagi 15 ta ixtisoslashtirilgan tibbiy markaz, 11 ta ko'p tarmoqli va 62 ta poliklinika "Yagona elektron tibbiy karta" va "Elektron poliklinika" axborot tizimiga ulanib, xususiy klinikalar bilan integratsiya qilinadi. Bunday tizim boshqa soha va tarmoqlarda ham tatbiq etiladi. Agarda qisqagina boshqa yo'nalishlariga nazar tashlasak, bu borada muhim va dolzarb vazifalar turibdi. Jumladan, bolalar bog'chasi, masofaviy ta'lim, shahar jamoat transportlari uchun yagona elektron chipta, qurilishni nazorat qilish, elektron tibbiyot kartasi kabi yangi dasturiy ta'minotlar ishlab chiqish va tatbiq etish bo'yicha mazkur loyihada o'rin olgan. Bugungi kunda Toshkent shahrida 600 dan ortiq sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar yuqori tezlikdagi Internetga ulangan. Ammo ushbu yo'nalishda qilinayotgan ishlar hali ham yetarli darajada emas.

Telekommunikatsiya infratuzilmasi 2 yil mobaynida barcha 1,5 mingdan ziyod ijtimoiy soha obyektlari (maktab, bog'cha va sog'liqni saqlash) yuqori tezlikdagi Internet bilan ta'minlash ishlarini yakuniga yetkazishi rejalashtirilgan. Davlat xizmatlari sifatini oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida "Elektron hukumat" tizimini joriy etish, barcha davlat muassasalarini yuqori tezlikda ma'lumot uzatish tarmog'iga ulash, zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlash keng ishlar olib boriladi.





“Raqamli Toshkent”, shubhasiz, o‘ta yirik yuqori moliyaviy va inson manbalarni talab yetadigan loyihadir va bu jarayonlarga nafaqat hukumat, sherikchilik asosida aholini va xususiy tadbirkorlarni ham joriy etilishi nazarda tutilgan. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur loyihani birgalikda amalga oshirishi ahilligimizni kuchaytiradi, fuqarolarimizni ijtimoiy hayotda va O‘zbekiston ravnaqiga, Toshkent rivojiga hissa qo‘shishda faolligini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 avgustdagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3245- sonli Farmoni asosida Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta‘minlashga ko‘maklashish markazi qayta tashkil etildi.

“Xavfsiz shahar” loyihasining amalga oshirilishi O‘zbekistonni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi interfaol rivojlanish yo‘lida va mamlakatimizning jahon hamjamiyatida keng integrallashuvida barqaror va izchil taraqqiy etishi uchun mustahkam poydevor yaratishga qaratilgan. Shu bois, rejalashtirilgan siyosiy tadbirlar va vazifalarni amalga oshirishda Markaz qanchalik jiddiy va maqsadli ravishda intilishi, butunlay mamlakatimiz va xalqimiz farovonligini belgilab beradi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 2023, 1-may
2. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun – 2014, 28- mart
3. O‘zbekiston Respublikasi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun – 2018, 10- iyul
4. O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish va axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun – 2019, 18 -iyun
5. O‘zbekiston Respublikasi “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun – 2019, 16- oktyabr
6. O‘zbekiston Respublikasi “Telekommunikatsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun – 2020, 6- noyabr
7. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hukumat va elektron xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonun – 2020, 4-noyabr
8. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalla to‘g‘risida”gi Qonun – 2020, 8- noyabr
9. O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun – 2016, 4- noyabr
10. 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–2843-sonli qarori. “Xavfsiz hudud” tizimi – 2017, 3- noyabr

